

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY - AMERIKADA
Madaliyeva Zuxraxon Odiljon qizi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
University of Business and Science oliy
ta‘lim muassasasi, Til va adabiyot ta‘limi kafedrası
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15694769>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma‘rifatparvar adib Mahmudxo‘ja Behbudiy hayot va ijod yo‘lining xorijlik olimlar E.Allworth va A.Khalid tomonidan o‘rganilishi xususida so‘z yuritiladi. O‘zbek teatri sahnasida Behbudiyning “Padarkush” asari sahnalashtirilishi jarayoni borasidagi fikrlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье говорится об изучении жизни и творчества просвещенного писателя Махмудходжи Бехбуди зарубежными учёными Э.Олвортом и А.Халидом. Анализируются мысли Бехбуди по поводу постановки «Падаркуша» на сцене узбекского театра.

Annotation: This article discusses the study of the life and work of the enlightened writer Mahmudhoja Behbudi by foreign scholars E. Allworth and A. Khalid. Behbudi’s thoughts on the production of “Padarkush” on the stage of the Uzbek theater are analyzed.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, “Padarkush”, jadid, Ahmed Boytursun, mafkura, teatr.

XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalari hayoti va faoliyati dunyo olimlari nigohidan chetda qolmagan. Ingliz, nemis, yapon, tojik, turk adabiyotshunos olimlarining Mahmudxo‘ja Behbudiy to‘g‘risida qator tadqiqotlari mavjud.

Amerikalik Edvard Olvortning (“Uzbek literary politics”) “O‘zbek adabiy siyosati” asarida Behbudiy haqida ma‘lumotlar uchraydi. Muallif uning jadidlar yo‘lboshchisi bo‘lgani, Turkiston jadidlari orasida noyob iste‘dod egasi ekanligi, yangi maktablar uchun darsliklar tayyorlagani, uning “Padarkush” asari sahnalashtirilgani, Qarshi shahriga Behbudiy nomi berilgani, keyinchalik yana o‘zgartirilgani va uning o‘limi bilan bog‘liq tafsilotlar, vafotidan so‘ng uni madh etuvchi maqolalar chop etilgan nashrlar “reaksion” jadidni ulug‘lagani uchun qattiq tanqid qilingani kabi ma‘lumotlarni keltiradi¹.

Xorij adabiyotida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari to‘g‘risida ma‘lumotlar beruvchi ilk maqola 1964-yilning dekabrda paydo bo‘ldi². Muallif asarni u garchi Turkistondagi ilk sahna asari bo‘lsa-da, dastlabki nashrdan chiqqan drama emasligini aytadi, Unga ko‘ra, o‘zbek adabiyotidagi birinchi drama A.Samadovning muallifligidagi “Mahramlar” dramasi bo‘lib, 1912-yil Namanganda Is‘hoqiya bosmaxonasida sart shevasida nashr etilganini eslatadi. Bunday ma‘lumot o‘zbek tilidagi manbalarda ham aytiladi³. Asarning muvaffaqiyatini tasvirlar ekan, muallif, aqlli va ijtimoiy mas‘uliyatini to‘liq his qilgan ijodkor 20 yoshlaridanoq yurtdoshlari hayotini tinch yo‘l bilan o‘zgartirishga harakat qilganini ta‘kidlaydi.

O‘zbekshunos olim “Central Asia: 130 years of Russian dominance, a historical overview” asarida esa Behbudiyning jadidchilik harakati taraqqiyoti yo‘lidagi xizmatlarini e‘tirof etgan holda uni qozoq ma‘rifatparvari Ahmet Baytursun o‘g‘li⁴ bilan tengma-teng qo‘yadi. Darhaqiqat,

¹ Bu haqda batafsil qarang: Allworth E. Uzbek literary politics. The Hague: Mouton. 1964.

² Allworth E. The Beginnings of the Modern Turkestanian Theater//Slavic Review. 1964. Vol23. No.4. pp.676-687.

³ Karimov N. O‘zbek teatrining to‘ng‘ich asari//O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. –Toshkent: 2011. № 29.

⁴ XX asr boshlaridagi qozoq ma‘rifatparvari.

har ikki ziyolining nashriyot, adabiy siyosat, publitsistika, muallimlik kabi sohalaridagi faoliyati o'xshashdir.

Keyinroq nashr qilingan "Modern Uzbeks" asarida ham Behbudiyning dunyoviy bilimlarni egallashga nisbatan ijobiy munosabatini ko'rsatdi, madrasada o'qishni tamomlagach, oila qurgani, zamon bilan hamnafas yashash maqsadida keyinchalik o'g'lini rus tili va boshqa muhim fanlarni o'rganishi uchun rus-tuzem maktabida o'qitganini aytdi⁵. Olvort Behbudiy tarix va geografiya ilmlari zarurligi yuzasidan o'sha davrda ko'plab jamoatchilik va konservativ din peshvolari bilan bahslashganini ta'kidlaydi. Xususan, tarix to'g'risidagi bahslarda Behbudiy tarix va tarixiy ma'lumotlar muqaddas Qur'oni Karimning deyarli chorak qismini tashkil qilishini aytganini eslab, Behbudiyning keng dunyoqarash egasi ekanligiga e'tibor qaratdi: *Xudo Rabbii va aziz zotlar tomonidan bayon qilingan ma'lumotlar tarix fanining mohiyati va asosini tashkil etadi, ular biz musulmonlarni ham o'tmish tarixini o'rganishni, shuningdek, hali yozilmagan tarixlarni ham o'rganishga buyuradilar*⁶. "The beginnings of the modern Turkestanian theater" ishida Behbudiyning o'zbek teatr sohasidagi faoliyatini "Padarkush" asari orqali tahlil qiladi. Olimning asarlarini Behbudiy haqida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ijodkor hayot yo'li haqida ma'lumot beruvchi manbalar: "Modern Uzbeks";

2. Behbudiyning adabiy faoliyati, uning ijtimoiy qiyofasi, jadidchilik faoliyati to'g'risida fikrlar keltirilgan asarlar: "Uzbek literary politics", "Central Asia: 130 years of Russian dominance, a historical overview".

Aytib o'tish joizki, bugungi kun kitobxoni E.Olvort asarlariga tanqidiy yondashgani ma'quldir, chunki E.Olvort ishlari "Sovuq urush" davri mahsulidir. Muallif sobiq sovet mafkurasiga qarshilik pozitsiyasida qattiq turar ekan, ba'zi o'rinlarda jadid adabiyotining (umuman olganda, o'zbek adabiyotining) muhim jihatlarini ko'ra olmaydi yoki ko'zdan qochiradi. E.Olvortning o'zbek adabiyotiga oid tadqiqotlari jamlanib, yakka holda o'rganilishi, ilmiy va tarixiy asoslarga ega ma'lumotlar o'zbek tiliga ham tarjima qilinishi lozim.

Amerikalik Adib Xolid ham jadid davri ijodkorlari, ularning asarlari ustida izlanishlar olib borgan. E'tiborli jihati shundaki, o'zbek adabiyoti yuzasidan olib borilayotgan u va boshqa yangi davr tadqiqotchilarining izlanishlarida istiqloq ta'siri yaqqol seziladi. Keyingi davrda yaratilayotgan tadqiqotlarda ijodkorlar va ularning asarlariga baho berishda nisbatan mafkuraviylikdan xolilik kuzatiladi. A.Xolid "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" asarida jadidchilik harakati, uning o'lkada yoyilishi, yerlik xalqning bu jarayonga munosabati, jadidlarning faoliyati haqida yozar ekan, Behbudiy shaxsiyati va ijod yo'li xususida ham to'xtaladi. Unga ko'ra, Behbudiyning asl familiyasi Behbudxo'ja bo'lib, o'sha davrda shunday urf bo'lgan tatarcha familiyalar uning ham Behbudiy nomi bilan tanilishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotchi bu fikriga biror asos manbani keltirmaydi. "Padarkush" asari sahnalashtirilishi arafasida bunga to'sqinlik qiluvchilar paydo bo'ladi. Bunday to'siqlarni tasvirlashda samarqandlik mudarrislardan biri Sayyid Ahmad Vasliy bilan teatr haqida qilgan munozaralarini keltiradi. Vasliy va bir qancha ulamolar teatrni islom diniga xilof deb bilishgan, Behbudiy esa ularga bu ko'rinishlar kishilarning yomon xatti-harakatlari oqibatida keladigan xatarlardan ogohlantiradi, deya javob berib, o'z javoblarini diniy tomondan ham asoslashga urinadi. Bundan tashqari, Vasliyning o'zini ham ishq, kishini sarxush qiluvchi ichimliklar (masalan, sharob, boda,

⁵ Allworth E. The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. Stanford, California. 1990.

⁶ Allworth E. The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. Stanford, California. 1990. –B. P.125.

may – ta’kid bizniki Z.M) haqida she’rlar yozishini, bunday tushunchalar shariatda yaxshi qabul qilinmasa-da, tariqatda o’zgacha mohiyat kasb etganini aytib, bahsda o’z ustunligiga erishadi. A.Xolid Vasliy va Behbudiy o’rtasidagi bunday bahslar tugaganiga qaramay, jamiyatda ancha uzoq davom etganini yozadi. Shuningdek, muallif Behbudiyning turk dunyosi bilan aloqalari yaxshi bo’lganini aytadi. “Sirot-i Mustaqim” nomli turk jurnali Behbudiyning Samarqanddagi kutubxonasiga ham yetib boradi, minnatdorchilik tariqasida u o’z asarlaridan jurnal tahririyatiga yuboradi, bu haqida “Sirot-i Mustaqim”ning 1910-yil 16-sentabr sonida “Samarqanddan” nomli maqola ham bosiladi. Mahmudxo’ja turkiylarning asosiy jurnali “Turk Yurdu” bilan ham hamkorlik aloqalarini olib borgan (tashkilotning Istanbuldagi idorasida uning turkiy tilda bitilgan Turkiston xaritasi saqlangan) va urush tufayli aloqalar uzilguniga qadar Usmonli matbuotidagi maqolalarni “Oyna”da qayta nashr etgan. Uning bu faoliyati butun turkiy olamda ham o’z o’rniga ega ijodkor bo’lganligini ko’rsatadi.

Tadqiqotchi “Printing, Publishing and Reform in Tsarist Central Asia” (“Markaziy Osiyoda matbaa, nashriyot va islohotlar”) nomli izlanishlaridan birida 1913-yilda “Samarqand” gazetasi faoliyati to’xtagach, Behbudiy “Oyna” universal jurnalini chiqarishni boshlagani, jurnalni o’z uyida nashr etib, Samarqanddan 600 nafar odamni obunachi qilib olgani, biroq jurnal faoliyatining birinchi yilidayoq 234 nafar obunachilar qolgani va bu kamayish davom etib, 1915-yilda jurnal inqirozga uchraganini aytadi.

Adib Xolidning yangi izlanishlari natijalari aks etgan 2015-yilda chop qilingan “Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR” asarida ham Mahmudxo’ja Behbudiy to’g’risida muhim ma’lumotlar uchraydi. Uning o’limi to’g’risida so’z yuritar ekan, A.Xolid bu hol hanuzgacha sirligicha qolayotganini aytadi, bu boradagi N.Karimov qarashlarini ham ishonchsiz deb baholaydi⁷.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy, uning adabiy merosi yuzasidan olib borilgan milliy va xorijiy tadqiqotlar o’zaro qiyoslanib o’rganilishi natijasida ijodkor shaxsi hamda adabiy merosining yanada mukammal ko’rinishi yaratiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allworth E. Uzbek literary politics. The Hague: Mouton. 1964.
2. Allworth E. The Beginnings of the Modern Turkestanian Theater//Slavic Review. 1964. Vol23. No.4.
3. Allworth E. The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. Stanford, California. 1990.
4. Karimov N. O’zbek teatrining to’ng’ich asari//O’zbekiston adabiyoti va san’ati. –Toshkent: 2011. № 29.
5. Khalid A. Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR. Cornell university press. 2015.
6. ©, Madaliyeva Zuxraxon Odiljon qizi, 2025.

⁷ Khalid A. Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR. Cornell university press. 2015. –P.81.